



UDK 338.48:379.85(091)

Qaxramonjon A. MATXOLIQOV,

Tarix fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: kakhramon.matkholikov@gmail.com

ORCID 0009-0004-5872-7189

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti, PhD A.Xudayorov taqrizi asosida

FORMATION OF THE CONCEPT OF TOURISM: HISTORICAL AND THEORETICAL ANALYSIS

Annotation

The article provides a comprehensive analysis of the origin of the term "tourism" and its formation as a scientific concept. The study examines the etymological roots of the term, particularly its connection with the French word "tour", the Latin "tornare", and the Greek "tornos". Special attention is given to the distinction between the concepts of "travel" and "tourism", as well as to the historical conditions under which tourism emerged as a socio-economic category in the 19th–20th centuries.

Keywords: tourism, travel, etymology, "tour", history of tourism, scientific concept, recreation, socio-economic process, tourist, global economy.

ФОРМИРОВАНИЕ ПОНЯТИЯ ТУРИЗМА: ИСТОРИЧЕСКИЙ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В статье комплексно анализируется происхождение термина «туризм» и процесс его формирования как научного понятия. Рассматриваются этимологические корни термина, связанные с французским словом "tour", латинским "tornare" и греческим "tornos". Особое внимание уделяется разграничению понятий «путешествие» и «туризм», а также историческим условиям формирования туризма как социально-экономической категории в XIX–XX веках.

Ключевые слова: туризм, путешествие, этимология, "tour", история туризма, научное понятие, рекреация, социально-экономический процесс, турист, мировая экономика.

TURIZM TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI: TARIXIY VA NAZARIY TAHLIL

Annotatsiya

Maqolada turizm atamasining kelib chiqishi va uning ilmiy tushuncha sifatida shakllanish jarayoni kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda turizmning etimologik ildizlari, jumladan, fransuzcha "tour", lotincha "tornare" va grekcha "tornos" tushunchalari bilan bog'liqligi yoritilgan. Shu bilan birga, turizm va sayohat tushunchalarining farqli jihatlari, turizmning ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida XIX–XX asrlarda shakllanishi va uning zamonaviy ilmiy ta'riflari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: turizm, sayohat, etimologiya, "tour", turizm tarixi, ilmiy tushuncha, rekreatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon, turist, global iqtisodiyot.

Kirish. Turizm zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va hududiy rivojlanish jarayonlarida alohida o'rin egallaydigan murakkab va ko'p qirrali fenomen hisoblanadi. Jahon sayohat va turizm kengashi (World Travel & Tourism Council – WTTC)ning ma'lumotiga ko'ra 2025 yilda turizm va sayohatning jahon yalpi ichki mahsulotiga qo'shgan hissasi 11,6 trillion AQSH dollarini tashkil etgan bo'lib, bu jahon iqtisodiyotining qariyb 9,8 foiziga tengdir. Ayni paytda mazkur sohaning o'sish sur'ati 4,1 foizni tashkil etib, umumjahon iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi (2,8 foiz)dan qariyb 50 foizga yuqori bo'lgan. Bu holat turizmning nafaqat tiklanish jarayonida muhim omil, balki global iqtisodiy rivojlanishning strategik manbai ekanligini tasdiqlaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan ham turizm sohasining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Jumladan, 2025 yilda mazkur tarmoq dunyo miqyosida 366 million ish o'rini (umumiy bandlikning 10,9 foizi) ta'minlagan. Shuningdek, jahonda yaratilgan har uchta yangi ish o'rnidan biri aynan turizm sohasi hissasiga to'g'ri kelishi ushbu tarmoqning mehnat bozoridagi hal qiluvchi rolini yaqqol namoyon etadi[1]. Keltirilgan statistik ma'lumotlar World Travel & Tourism Council tahlillariga tayanib shuni ko'rsatadiki, zamonaviy bosqichda turizm va sayohat nafaqat xizmatlar sohasining tarkibiy qismi, balki jahon iqtisodiyotining strategik drayveriga aylangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turizm atamasining shakllanishi va uning ilmiy mazmuni turli davr va ilmiy maktablar doirasida bosqichma-bosqich rivojlangan. Etimologik tadqiqotlarda N. Leyper (N. Leiper, 1983) hamda M. Korstane (M. Korstanje, 2007) ishlarida "tourism" atamasining ildizlari aylanma harakat ma'nosini anglatuvchi leksik asoslar bilan bog'lanib, uning ingliz tilidagi ilk qo'llanilishi XIX asr boshlariga mansubligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, T. Inagaki (T. Inagaki, 2019) turizm tushunchasi ta'rifining evolyusiyasini tahlil qilib, uning oddiy sayohatdan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyaga aylanish jarayonini asoslab beradi. R. K. Mill va A. M. Morrison (R. C. Mill, A. M. Morrison, 1985) esa turizmning tarixiy rivojlanishini industrial jamiyat, transport tizimi va bo'sh vaqt instituti bilan bog'liq holda izohlaydilar. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, UN Tourism tomonidan ishlab chiqilgan glossariylarda turizm "odatiy muhitdan tashqarida vaqtincha bo'lish" mezonlari asosida aniq ta'riflanib, uning statistik va iqtisodiy tahlil imkoniyatlari yaratilgan. Shu bilan birga, World Travel & Tourism Council ma'lumotlari turizmning zamonaviy bosqichda jahon iqtisodiyotidagi strategik ahamiyatini (YAIM va bandlikdagi yuqori ulushi) tasdiqlaydi. Ensiklopedik manbalar, xususan Encyclopaedia Britannica turizmni dam olish va xizmatlar

iste'moli bilan bog'liq ijtimoiy amaliyot sifatida talqin qiladi, O'zbekiston Respublikasining "turizm to'g'risida"gi Qonuni esa uni huquqiy jihatdan tartibga soladi. Umuman olganda, mazkur adabiyotlar turizm atamasining lingvistik kelib chiqishidan tortib, uning xalqaro standartlashgan ilmiy va huquqiy kategoriyaga aylanishigacha bo'lgan evolyusiyasini kompleks tarzda yoritadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada turizm atamasining kelib chiqishi va uning ilmiy kategoriya sifatida shakllanishini kompleks o'rganishga qaratildi. Unda tarixiy-genetik, qiyosiy-tahliliy va tizimli yondashuvlar qo'llanildi. Ilmiy adabiyotlar va manbalar kontent-tahlil asosida o'rganilib, turizm tushunchasining lingvistik, ijtimoiy va iqtisodiy qirralari o'zaro bog'liq holda tahlil etildi.

Tahlil va natijalar. Turizm atamasining kelib chiqishi va uning ilmiy tushuncha sifatida shakllanishi muammosi turizmshunoslikda ham etimologik, ham metodologik jihatdan bahsli mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu masalani tahlil qilishda, odatda, ikki o'zaro bog'liq, ammo mazmunan farq qiluvchi yo'nalish ajratiladi: birinchisi – atamaning lingvistik (etimologik) kelib chiqishi, ikkinchisi – uning ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy kategoriya sifatida shakllanishi. Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur ikki yo'nalishni aralashtirish turizm tushunchasini noto'g'ri talqin qilishga olib kelishi mumkin.

Etimologik jihatdan qaralganda, "turizm" atamasining kelib chiqishi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda yagona fikr mavjud emas. Xususan, maxsus tadqiqotlarda ushbu atamaning ildizlari uchta asosiy maktab doirasida tushuntiriladi. Birinchi – saksonlotin yo'nalishi bo'lib, unga ko'ra "tourism" so'zi qadimgi sakson tilidagi "torn" atamasiga borib taqaladi va "aylanish", "harakatlanish" ma'nosini anglatadi. Ikkinchi – semit yo'nalish bo'lib, bu qarashga ko'ra atamaning ildizi oromiy tilidagi "turn" so'zi bilan bog'liq. Uchinchi – onomastik (britan) maktab bo'lib, u atamaning kelib chiqishini tarixiy nomlar va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'laydi. Biroq ushbu yondashuvlar o'rtasida yagona ilmiy konsensus mavjud emasligi ta'kidlanadi[2]. Bu holat turizm atamasining kelib chiqishi poligenetik, ya'ni ko'p manbali ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, turizm atamasining amaliy jihatdan eng ko'p qabul qilingan talqini uning frantsuz tilidagi "tour" so'zi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bu so'z "aylanish", "sayohat" ma'nolarini anglatib, o'z navbatida lotin tilidagi "tornare" va grek tilidagi "tornos" tushunchalariga borib taqaladi[3]. Shu tariqa, atamaning semantik asosida aylanma harakat, ya'ni muayyan yo'nalish bo'ylab borish va yana boshlang'ich nuqtaga qaytish g'oyasi yotadi. Bu jihat turizmni oddiy harakat emas, balki strukturalashgan sayohat shakli sifatida tushunish imkonini beradi.

Biroq etimologiyani tahlil qilish turizm tushunchasining mazmunini to'liq ochib bermaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, turizm etimologiyasini o'rganish ko'p hollarda zamonaviy turizm xususiyatlarini tarixiy ildizlar orqali "orqaga qarab tushuntirish" bilan cheklanadi va bu yondashuv har doim ham ilmiy jihatdan samarali emas[4]. Shu sababli turizm atamasini faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy-tarixiy jarayon sifatida tahlil qilish zarur.

Bu erda asosiy metodologik muammo – turizm va sayohat tushunchalarini farqlashdir. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, inson tarixida sayohat u turli maqsadlarda amalga oshirilgan: oziq-ovqat izlash, xavfdan qochish, savdo, harbiy yurishlar, migrasiya va diniy ziyoratlar. Biroq bu harakatlarni turizm deb atash ilmiy jihatdan noto'g'ri, chunki ularda dam olish va rekreasiya omillari ustun bo'lmagan[5]. Demak, turizm – sayohatning maxsus, tarixan shakllangan ko'rinishi bo'lib, u barcha harakat shakllarini qamrab olmaydi.

Turizm tushunchasining ilmiy shakllanishiga kelsak, u industrial jamiyat sharoiti bilan chambarchas bog'liq. XIX asrdan boshlab transport infratuzilmasining rivojlanishi, ayniqsa temir yo'llar va keyinchalik havo transportining taraqqiyoti, sayohatni ommaviy va nisbatan arzon faoliyatga aylantirdi. Shu bilan birga, shaharlashuv jarayonlari va aholi daromadlarining o'sishi dam olish maqsadida sayohat qilish ehtiyojini kuchaytirdi. Natijada "turist" va "turizm" atamaları ijtimoiy muomalaga kirib keldi.

Shu bilan birga, turizm tushunchasining ilmiy mazmuni doimiy ravishda o'zgarib boradi. Zamonaviy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, turizm ta'rifi Real ijtimoiy jarayonlar va ularning nazariy ifodasi o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi. YA'ni turizm tushunchasi statik emas, balki dinamik kategoriya bo'lib, u vaqt o'tishi bilan yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va turizm shakllari ta'sirida kengayib va qayta shakllanib boradi[6].

Bundan tashqari, turizm tushunchasini shakllantirishda uning iqtisodiy mazmuni ham muhim o'rin tutadi. Zamonaviy tadqiqotlarda turizm nafaqat harakat, balki iqtisodiy qiymat yaratuvchi faoliyat sifatida ham qaraladi. Sayohat turizmga aylanishi uchun u muayyan xizmatlar (transport, joylashuv, ovqatlanish va boshqalar) bilan bog'liq bo'lishi va iqtisodiy aylanmaga kirishi zarur. Bu jihat turizmni oddiy harakatdan farqlovchi muhim mezon hisoblanadi.

XX asrda turizm tushunchasi xalqaro darajada standartlashtirildi. Jumladan, xalqaro tashkilotlar tomonidan turizmni aniq mezonlar asosida ta'riflashga urinishlar amalga oshirildi. Masalan, turist deb o'z doimiy yashash joyidan tashqarida kamida 24 soat bo'lgan, ammo u erda haq to'lanadigan mehnat bilan shug'ullanmagan shaxs tushuniladi[7]. Keyinchalik BMT va Jahon turizm tashkiloti bu ta'rifni yanada aniqlashtirib, turistlarni "tunovchi" va "kunlik tashrif buyuruvchi"larga ajratgan. Bu esa turizmni statistik va iqtisodiy tahlil qilish uchun muhim asos bo'lib xizmat qildi.

Butunjahon turizm tashkilotining ta'rifiga ko'ra, turizm – bu ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hodisa bo'lib, shaxslarning shaxsiy yoki kasbiy maqsadlari yo'lida o'zlarining odatiy muhitidan tashqaridagi mamlakat yoki makonlarga harakatlanishini ifodalaydi[8]. "Britanika" ensiklopediyasida ushbu tushunchaga "dam olish va rohatlanish maqsadida, tijorat xizmatlaridan foydalangan holda uydan tashqarida vaqt o'tkazish harakati va jarayoni[9]" deb ta'rif berilgan. O'zbekiston Respublikasining "turizm to'g'risida"gi Qonunida esa turizmga "jismaniy shaxsning vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo'nab ketishi (sayohat qilishi)[10]" sifatida huquqiy baho berilgan.

Yuqoridagi fikrlar ilmiy adabiyotlarda turizm tushunchasiga turli yondashuvlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, turizm geografiya, iqtisodiyot, sosiologiya, Madaniyatshunoslik, menejment, psixologiya va ekologiya kabi fanlar kesishmasida shakllangan sohadir. Shu sababi ham barcha fanlar bo'yicha o'ziga hos yondoshuvlar mavjud. Jumladan, iqtisodiy yondashuvda turizm aholining safarlari orqali xizmatlar iste'moli, mehmonxona, transport, ovqatlanish, ekskursiya, savdo va ko'ngilochar tarmoqlar faoliyatini rag'batlantiruvchi yirik bozor mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Geografik yondashuvda esa turizm hududiy harakat, turistik makon, rekreasion resurslar va turistik oqimlarning joylashuvi bilan bog'liq jarayon sifatida o'rganiladi. Sosiologik jihatdan turizm insonning bo'sh vaqtdan foydalanish madaniyati, ijtimoiy faolligi, qadriyatları va turmush tarzi bilan bog'liq hodisadir. Madaniy nuqtai nazardan qaralganda esa turizm xalqlar o'rtasidagi muloqot, madaniy merosni anglash, an'ana va urf-odatları tanish,

madaniyatlararo aloqani kuchaytirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Turizmining ilmiy ta'rif, avvalo, uning asosiy belgi va xususiyatlarini aniqlashni talab qiladi. Turizm doimiy yashash joyidan tashqariga muayyan muddatga chiqish bilan bog'liq bo'ladi, lekin bu ko'chib ketish yoki doimiy migrasiya emas. Ikkinchidan, turizm vaqtinchalik xususiyatga ega, ya'ni inson ma'lum muddatdan keyin o'z yashash joyiga qaytadi. Uchinchidan, turizm safarning maqsadi bilan farqlanadi: dam olish, sog'lomlashish, bilish, ziyorat, ish, ta'lim, sport, tadqiqot va boshqa maqsadlar shular jumlasidandir. To'rtinchidan, turist safar qilgan hududida doimiy daromad manbai yaratmaydi, ya'ni u o'sha erda doimiy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun emas, balki vaqtincha bo'lish maqsadida boradi[11]. Ana shu belgilar turizmni mehnat migrasiyasi, xizmat safari, ko'chish yoki tranzit harakatlardan ajratib turadi.

Turizm tushunchasining ilmiy tahlili uning mohiyatidagi ikki asosiy qirrani ko'rsatadi. Birinchi qirra – turizm shaxsiy ehtiyojlarni qondirish vositasi ekanligidir. Inson turizm orqali jismoniy va ruhiy tiklanish, taassurot olish, bilim doirasini kengaytirish, o'zini anglash, dunyoqarashini boyitish imkoniga ega bo'ladi[12]. Ikkinchi qirra – turizm zamonaviy iqtisodiyotda jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan sohalaridan biri hisoblanadi. U iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil sifatida yangi ish o'rinlarini yaratadi, hududiy iqtisodiyotlarni diversifikasiya qiladi va mahalliy bozorlarda xizmatlar sohasining kengayishiga olib

keladi. Shu bilan birga, turizm kichik va o'rta biznes subyektlarini rivojlantirishda muhim drayver vazifasini bajaradi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, turizm nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy funksiyalarni ham bajarib, milliy madaniyat va merosni xalqaro miqyosda namoyish etishga xizmat qiladi, shu orqali mamlakatning ijobiy xalqaro imijini shakllantiradi hamda tashqi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi[13]. Demak, turizm ham shaxsiy, ham ijtimoiy, ham iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan kompleks hodisadir.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, turizm atamasi lingvistik, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar o'zaro ta'sirida shakllangan murakkab ilmiy kategoriyadir. Uning etimologik ildizlari frantsuzcha "tour" orqali lotincha tornare va grekcha tornos tushunchalariga borib taqalsa-da, mazmuni faqat til tarixi bilan cheklanmaydi. Turizm sayohatdan farqli ravishda industrial jamiyat sharoitida, rekreasiya va xizmatlar bozori shakllangan davrda mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida vujudga kelgan. Shu bilan birga, u dinamik kategoriya bo'lib, transport, urbanizatsiya va globallashtirish ta'sirida doimiy ravishda rivojlanib boradi. Zamonaviy bosqichda turizm global iqtisodiyotning muhim drayveri sifatida YAIM, bandlik va madaniyatlararo aloqalarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Demak, turizm tarixiy evolyusiyasi natijasida shakllangan va ko'p fanli yondashuvni talab etuvchi kompleks hodisadir.

ADABIYOTLAR

1. <https://wtc.org/news/travel-tourism-sees-best-year-ever,-outpacing-the-global-economy-in-2025>
2. The Origin and Meaning of Tourism // Review of Tourism Research (eRTR). – Texas A&M University (USA), 2007. – Vol. 5, No. 5. – P. 108.
3. Leiper N. An etymology of tourism // Annals of Tourism Research. – Oxford: Pergamon Press, 1983. – Vol. 10, No. 2. – P. 277–279.
4. Inagaki T. A Study on Evolution of the Definition of Tourism // Rikkyo University Bulletin of Studies in Tourism. – Tokyo: Rikkyo University, 2019. – No. 21. – P. 50–66.
5. The Origin and Meaning of Tourism // Review of Tourism Research (eRTR). – College Station (Texas, USA): Texas A&M University, 2007. – Vol. 5, No. 5. – P. 108
6. Inagaki T. A Study on Evolution of the Definition of Tourism // Rikkyo University Bulletin of Studies in Tourism. – Tokyo: Rikkyo University, 2019. – No. 21 p. 50–51
7. Tourism: its historical development // Mill R. C., Morrison A. M. The Tourism System: An Introductory Text. – Englewood Cliffs (NJ, USA): Prentice-Hall, 1985. – P. 21
8. <https://www.unwto.org/glossary-tourism-terms>
9. <https://www.britannica.com/topic/tourism>
10. O'zbekiston Respublikasining "turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son Qonuni. 2019 yil 18 iyul
11. <https://www.untourism.int/glossary-tourism-terms>
12. <https://www.britannica.com/topic/tourism>
13. International Tourism Highlights, 2020 Edition. – Madrid: World Tourism Organization, 2020. – p. 6.